

amalga oshiriladi. Bu borada profilaktika inspektorlari, psixologlar, pedagoglar, mahalla faollari va ota-onalarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega [6].

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda “oila-ta’lim-mahalla” hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi [7;8].

Ushbu model doirasida: oilalar bilan manzilli ishlash, maktablarda huquqiy tarbiyani kuchaytirish, mahalla institutining tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yoshlarning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ijtimoiy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Kriminologik tahlil shuni ko’rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga quyidagilar:

- ✓ ota-onalarning farzandlarining o’smirlik davri (yoshi)da o’ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari va mashg’ulot turidan kelib chiqib, alohida ta’lim-tarbiya berish usullarini bilmasliklari;
- ✓ ota-onalar o’z ish faoliyatlari bilan mashg’ul bo’lib, farzandlari tarbiyasini o’z holiga tashlab qo’yganliklari;
- ✓ ota-onalar farzandlarining darsdan bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga ko’maklashmayotganliklari;
- ✓ bolaning nosog’lom (nizoli, ijtimoiy-ma’naviy muhiti buzilgan, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik shakllangan) oilada yashab kelganligi;

#### Foydalanilgan manbalar

1. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2025.
2. O’zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami.
3. O’zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-mayda qabul qilgan “Voyaga yetmaganlar o’rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning nazoratsizligini bartaraf etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-183-son qarori.
5. Ismailov I., Qo’ldoshev A. Kriminologiya: Darslik. – T.: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – 320 b.
6. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуқи курси. 5-том: Жазо ва уни тайинлаш. Вояга етмаганлар жавобгарлиги хусусиятлари. – Т.: Илм-зиё, 2018.
7. Закирова М. Вояга етмаганлар жиноятчилигининг олдини олишда маҳалла институтининг роли // Ҳуқуқ ва бурч, 2022. – №4. – Б. 45–50.
8. Долгова А.И. Криминалогия: Учебник для вузов. – М.: Норма, 2019. (Глава: Преступность несовершеннолетних).
9. Shoemaker, D. J. (2020). Theories of Delinquency: An Examination of Explanations of Delinquent Behavior. Oxford University Press.

- ✓ ota-onaning farzandi tarbiyasiga salbiy ta’siri;
- ✓ ota-onaning voyaga yetmagan farzandini qoldirib, uzoq muddatga ketganligi, bolaning nazoratsiz qoldirilganligi;
- ✓ og’ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki mushkul ahvolda bo’lganligi, o’zaro kelishmovchiligi bo’lganligi;
- ✓ ilgari jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsning axloqan tuzalmaganligi (2 ta holatda muqaddam sudlanganlar tomonidan jinoyat sodir etilgan);
- ✓ yangi muhitda muloqot qilishda psixologik to’siqning mavjudligi, o’z-o’zini hurmat qilishning pasayishi, depressiya holatlari;
- ✓ ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib borilayotgan axloqsiz va notarbiyaviy kontentlarning salbiy ta’siri;
- ✓ televideniya namoyish qilib borilayotgan aksariyat ko’rsatuv va seriallardagi yengil hayot kechirishni targ’ib qiluvchi g’oyalarning voyaga yetmaganlar xulq-atvoriga salbiy ta’siri;
- ✓ maktablarda tarbiyasi og’ir o’quvchilar bilan ishlashda mavjud muammolar;
- ✓ maktab o’quvchilarining huquqiy savodxonligi yo’qligi, o’zi tomonidan amalga oshirilayotgan qonunga zid (tanishiga tan jarohati yetkazish, haqorat qilish va h.k.) xatti-harakatlarning huquqiy oqibatini anglamasligi sabab bo’lmoqda.

## MAHALLALARDA JAMOAT TARTIBINI TA’MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI: TIZIMLI-KRIMINOLOGIK TAHLIL



**BOLIYEV**  
**Umar Usmonovich**  
O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada O’zbekiston Respublikasida mahalla institutining jamoat tartibini ta’minlash va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasidagi huquqiy asoslari tizimli-kriminologik yondashuv asosida o’rganilgan. 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohot, 2024-yilda “Mahalla yettiligi” institutining huquqiy tartibga solinishi va 2025 va 2026-yillarda qabul qilingan PQ-1-sonli qarorlarni qiyosiy-huquqiy tahlil qilish orqali mahallaning davlat-jamoat tizimidagi huquqiy tabiati asoslantirilgan. Rasmiy statistik ko’rsatkichlar va amaliy keyslar asosida institutsional islohotning kriminologik samaradorligi baholangan. Qonunchilikni takomillashtirishga oid mualliflik takliflari “mahalla yettiligi” to’g’risidagi maxsus qonun loyihasi, ma’muriy-yurisdiksiyon vakolatlarni kengaytirish va jamoatchilik-yuridik nazoratni mustahkamlash yo’nalishlarida ilgari surilgan.

**Kalit so’zlar:** mahalla, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, jamoat tartibi, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi, “mahalla yettiligi”, profilaktika inspektori, kriminogen vaziyat, gibrid huquqiy institut.

**Аннотация.** В статье на основе системно-криминологического подхода исследованы правовые основы деятельности института махалли в обеспечении общественного порядка и ранней профилактике правонарушений в Республике Узбекистан. Посредством сравнительно-правового анализа конституционной реформы 2023 года, регламентации института «махаллинской семёрки» в 2024 году и Постановлений Президента ПП-1 от 2025 и 2026 г.г. обоснована государственно-общественная правовая природа махалли. На основе официальной статистики МВД и прикладных кейсов оценена криминологическая эффективность институциональной реформы. Сформулированы авторские предложения по совершенствованию законодательства: разработка специального закона о «семёрке махалли», расширение административно-юрисдикционных полномочий и укрепление общественно-правового контроля.

**Ключевые слова:** махалля, органы самоуправления граждан, общественный порядок, ранняя профилактика правонарушений, семёрка махалли, инспектор профилактики, криминогенная обстановка, гибридный правовой институт.

**Abstract.** The article, applying a systemic-criminological approach, examines the legal foundations of the mahalla institution in maintaining public order and ensuring early prevention of offences in the Republic of Uzbekistan. Through comparative-legal analysis of the 2023 constitutional reform, the formalisation of the «mahalla seven» institution in 2024, and Presidential Resolution PR-1 of 2025, 2026 the state-public legal nature of the mahalla is substantiated. Based on official statistics of the Ministry of Internal Affairs and applied case studies, the criminological effectiveness of the institutional reform is assessed. The author advances proposals for legislative improvement in the areas of: a special law on the «mahalla seven», expansion of administrative-jurisdictional powers, and strengthening of public-legal oversight.

**Key words:** mahalla, citizens’ self-government bodies, public order, early crime prevention, mahalla seven, prevention inspector, criminogenic situation, hybrid legal institution.

Bugungi kunda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jamoat tartibini ta'minlash masalasi O'zbekiston Respublikasining huquqiy siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yo'nalishda davlat tuzilmalari va an'anaviy jamoatchilik instituti bo'lgan mahallaning o'zaro hamkorligi, kriminologik nuqtai nazardan, noyob model sifatida shakllantirilmoqda. Zamonaviy huquqshunoslik fani oldida turgan muhim vazifa mazkur modelning huquqiy-doktrinal asoslarini aniqlash va uning profilaktik samaradorligini baholashdan iborat.

O'zbekiston mahallalarida jamoat tartibini ta'minlashning huquqiy asoslarini tizimli kriminologik yondashuv asosida o'rganish hamda profilaktik-huquqiy mexanizmlar samaradorligini oshirish zarurati quyidagi omillar bilan izohlanadi.

*Birinchidan*, 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi mahalla institutining konstitutsiyaviy maqomini sezilarli darajada yangiladi [1; 20-, 105-moddalar].

*Ikkinchidan*, 2024-yilda «mahalla yettiligi» modelining rasmiy huquqiy tuzilma sifatida shakllantirilishi O'zbekiston huquqiy tizimida yangi institutsional hodisa bo'lib, ilmiy doktrinal tahlilga muhtoj [2].

*Uchinchidan*, rasmiy statistik ma'lumotlar (IIV, 2025-y.) – oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar sonining 9,2% ga kamayishi hamda respublikadagi mahallalarning 39 foizida (3 503 ta mahallada) yil davomida jinoyat qayd etilmaganligi – mazkur modelning kriminologik hayotiylikni tasdiqlaydi [3].

Ushbu zaruratni hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- mahallaning huquqiy maqomi va konstitutsiyaviy-huquqiy paradigmasini aniqlash;
- “mahalla yettiligi” institutsional modelining huquqiy-funksional jihatlarini tahlil qilish;
- qonunchilikda mahallaning profilaktik vakolatlarini tizimlashtirish;
- huquqbuzarliklar dinamikasining statistik-kriminologik tahlilini amalga oshirish;
- amaliy keyslar va qiyosiy-huquqiy tajribani tahlil qilish;
- qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish.

Mahalla institutining huquqiy maqomini tahlil qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni shartli ravishda to'rt yo'nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish – mahallaning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomiga oid tadqiqotlar. A.X. Saidov yangi tahrirdagi Konstitutsiya doirasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari maqomining transformatsiyasini tahlil qilib, mahallaning inson huquqlarini himoya qiluvchi birlamchi subyekt sifatidagi yangi rolini asoslaydi [4]. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiyaning 127-moddasi mazmuni tubdan o'zgarganligi qayd etiladi.

Ikkinchi yo'nalish – huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy mexanizmlariga oid tadqiqotlar. A.A. Amanov 1999–2016-yillar orasi hamda Yangi O'zbekiston islohotlari davrida ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining huquqiy asoslari evolyutsiyasini tarixiy-huquqiy uslub orqali ko'rsatib bergan [5; 18–24-b.]. B.A. Mustofaqulov va J.S. Ro'ziyev zamonaviy profilaktika inspektori-ning axborot texnologiyalaridan foydalanish vakolatlarini tahlil qiladi [6; 89–96-b.].

Uchinchi yo'nalish – qiyosiy-kriminologik tadqiqotlar. A.Sh.Xushboqov xorijiy davlatlar tajribasi – Yaponiyaning “*Chonaykay*”, Koreyaning “*Tong*”, AQSHning “*Community Policing*” modellarini tahlil qilib, ularni O'zbekiston sharoitiga singdirish imkoniyatlarini o'rgangan [7; 740–750-b.]. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlar asosan *komparativ-funksional* xarakterga ega bo'lib, *huquqiy sintez* muammosi to'liq ochib berilmagan.

To'rtinchi yo'nalish – probatsiya va ijtimoiy reabilitatsiya sohasidagi tadqiqotlar. 2024-yilda “Probatsiya to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi doirasida probatsiya subyektlari ustidan mahalla ishtirokidagi nazorat mexanizmlari o'rganilmoqda [5; 8-b.].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, “mahalla yettiligi” institutining huquqiy-doktrinal tavsifi, uning gibrid maqomi, shuningdek, profilaktik samaradorligining empirik-statistik bahosi bo'yicha kompleks tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayni shu ilmiy bo'shliqni to'ldirish mazkur maqolaning predmeti hisoblanadi.

Mahalla institutining huquqiy asosini belgilashda konstitutsiyaviy normalar birlamchi metodologik ahamiyat kasb etadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 127-moddasiga ko'ra, shaharcha,

qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari hisoblanadi va ular raisni (oqsoqolni) saylaydi [1; 127-m]. Mazkur norma XXI bob – “*Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari*” tarkibida joylashtirilgani mahallaning konstitutsiyaviy maqomini mahalliy davlat hokimiyati tuzilmalari bilan tenglashtiradi.

Sifat jihatdan yangi yondashuv Konstitutsiyaning 20-moddasida o'z ifodasini topgan: “Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarining, davlat organlari, *fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari*, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi” [1; 20-modd]. Bu – sobiq Sovet huquqiy doktrinasidagi «qo'shimcha jamoatchilik subyekti» konsepsiyasidan tubdan farq qiladigan yangi paradigma bo'lib, mahallani *inson huquqlari kafillaridan biri* maqomiga ko'taradi [4].

Bevosita konstitutsiyaviy amal qilish tamoyili (15-modd) mahalla qarorlari ustidan sud nazoratini mustahkamlaydi. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 27-moddasiga

ko'ra, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari qarorlari hamda harakatsizligi yuzasidan nizolar ma'muriy sudlarga taalluqli [8; 27-modd].

Mahallalarni tartibga soluvchi birlamchi qonunchilik hujjati – 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonun (yangi tahrir 22.04.2013-yil O'RQ-350-son, 06.05.2023-yil O'RQ-838-son konstitutsiyaviy qonuni bilan o'zgartirilgan) hisoblanadi [9]. Qonunning 13–14-moddalari fuqarolar yig'ini raisining huquqbuzarliklar profilaktikasi, ma'muriy huquqbuzarliklar yuzasidan hujjatlar tuzish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish vakolatlarini belgilab beradi.

Institutsional taraqqiyotning sifat jihatdan yangi pog'onasini “mahalla yettiligi” modelining rasmiy huquqiy shakllantirilishi ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2023-yil 21-dekabr-dagi Farmoniga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyundagi 334-son [2] hamda 2024-yil 18-maydagi 292-son [10] qarorlari bilan mazkur institut rasmiy huquqiy tuzilma sifatida shakllantirildi. Uning tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan

“Mahalla yettiligi” tarkibi va idoraviy mansublik matritsasi

| T/r | A'zo                    | Xizmat yo'nalishi               | Idoraviy mansubligi                 |
|-----|-------------------------|---------------------------------|-------------------------------------|
| 1.  | Mahalla raisi           | Umumiy rahbarlik                | FO'O'B organi                       |
| 2.  | Hokim yordamchisi       | Tadbirkorlik, bandlik           | Mahalliy hokimiyat                  |
| 3.  | Yoshlar yetakchisi      | Yoshlar siyosati                | Yoshlar ittifoqi                    |
| 4.  | Xotin-qizlar faoli      | Gender, oila                    | Xotin-qizlar qo'mitasi              |
| 5.  | Profilaktika inspektori | Huquqbuzarliklarni oldini olish | IIV                                 |
| 6.  | Ijtimoiy xodim          | Ijtimoiy himoya                 | Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi |
| 7.  | Soliq inspektori        | Soliq ma'muriyati               | Soliq qo'mitasi                     |

Huquqiy-doktrinal jihatdan mazkur model *vertikal davlat xizmati tarmoqlari va gorizontal jamoatchilik o'zini o'zi boshqarish bo'g'ini* integratsiyasini ifodalaydi. KPI ko'rsatkichlari asosida

moddiy rag'batlantirish hamda mahalla raisiga a'zolarni baholashda 20 foiz ovoz huquqining berilishi [10] funksional va hududiy bo'ysunuvning mutanosib sintezini ta'minlaydi.

Mahallaning huquqbuzarliklarning oldini olish vakolatlari bir necha sohaviy kodeks va qonunlar orqali amalag oshiriladi. Jinoyat kodeksining 6-moddasi (demokratizm prinsipi) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini jinoyat sodir etgan shaxslarning axloqini tuzatish jarayoniga jalb etish imkoniyatini belgilaydi [11; 6-modda]. «Probatsiya to'g'risida»gi qonun (2024-y. 7 avg., O'RQ-938-son) mahallaning shartli ozod etilgan va jazodan ozod bo'lgan shaxslar bilan ishlashdagi huquqiy maqomini yangilab berdi [5; 8-b.].

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks mahalla faollariga jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar (183-modda – Betartib harakatlari, 184-modda – Mayda bezorilik) yuzasidan dalillarni to'plash hamda hujjatlarni tegishli organlarga yuborish vakolatini beradi [12]. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonun (2019-y., O'RQ-561-son) mahallaga oilaviy zo'rvonlikning profilaktikasi va himoya orderlari berish jarayonidagi ishtirokini belgilagan [13].

O'tkazilgan institutsional islohot samaradorligini baholash uchun 2024–2025-yillar bo'yicha rasmiy statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Mazkur tahlil quyidagi kriminologik xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

*Birinchidan*, mulkiy jinoyatlar (talonchilik – 24,8%, bosqinchilik – 27,0%, transport o'g'riligi – 15,0%) bo'yicha sezilarli ijobiy dinamika kuza-tilmoqda. Bu – mahalla darajasida situatsion krimi-nologik profilaktika (videokuzatuv, “namunali xavfsiz ko'cha” konsepsiyasi) samaradorligining bevosita natijasi sifatida talqin qilinadi [14].

*Ikkinchidan*, oila-maishiy sohada ziddiyatli tendensiya mavjud: umumiy jinoyatchilik pasa-yishiga qaramasdan, nomusga tegish jinoyatlari 6,1%ga ko'paygan. Bu holat mahallaning gender-profilaktik vakolatlarida *strukturaviy bo'shliq* mavjudligini ko'rsatadi.

*Uchinchidan*, “mahalla yettiligi” instituti joriy etilgandan keyingi birinchi to'liq hisobot davrida – 2025-yilda respublikadagi mahallalarning 39% yoki 3 503 ta mahalla biron-ta ham jinoyat qayd etilmagan «yashil» hududlar sifatida tan olindi [3]. Bu institutsional islohotning bevosita kriminologik samarasini ifodalaydigan muhim empirik ko'rsatkichdir.

Xalqaro reytinglarda ham ijobiy o'zgarish kuzatilmoqda. Numbeo sayti ma'lumotlariga ko'ra,

O'zbekiston 2025-yilning ikkinchi yarmida xavfsizlik indeksi bo'yicha dunyoda 25-o'rinni egalladi (73,4 ball), 2024-yilning shu davriga nisbatan ikki pog'onaga yuqoriladi va Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchilik qildi [15].

Mahalla modeliga qisman o'xshash institutlar bir qator davlatlarda mavjud. Yaponiya *Chonaykay* (町内会) – mahalla darajasidagi mutlaqo jamoatchilik o'zini o'zi boshqarish birlashmalari; Koreya *Tong* (洞) – ma'muriy-hududiy birlik hisoblanib, davlat ma'muriyati bilan yo'g'rilgan; AQSHning *Community Policing* konsepsiyasi politsiya-jamoatchilik hamkorligiga yo'naltirilgan bo'lib, u Germaniyada *Quartiersmanagement* modeli sifatida hududiy ma'nosini olgan [7; 740–750-b.]. O'zbekiston modeli *jamoatchilik-partitsipativ* (Yaponiya tipi) va *ma'muriy-funksional* (Koreya, Rossiya tipi) modellarining gibriz sintezini namoyon qiladi.

O'tkazilgan tizimli-kriminologik tahlil quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

1. O'zbekiston mahallalari, huquqiy-doktrinal nuqtai nazardan, *gibrid huquqiy institut* hisoblanib, davlat-funksional va jamoatchilik unsurlarining dialektik birligini namoyon qiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya (20-, 105-moddalar) hamda 2024-yilgi “mahalla yettiligi” modeli ushbu gibriz tabiatni huquqiy jihatdan mustahkamladi.

2. Huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi bo'yicha institutsional islohot o'zining bevosita empirik-kriminologik samarasini namoyon qilmoqda. Respublikadagi mahallalarning 39 foizida 2025-yil davomida jinoyat sodir etilmaganligi hamda profilaktika talab qiluvchi jinoyatlarning 9,2 foizga kamayishi mazkur modelning hayotiylikini tasdiqlaydi.

3. Shu bilan birga, amaliy keyslar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalla faoliyatining kengayishi unga nisbatan *jamoatchilik-yuridik nazorat mexanizmlarini* parallel takomillashtirishni taqozo etadi.

4. Qonunchilikni takomillashtirishiga oid quyidagi mualliflik takliflari ilgari suriladi:

– “*Mahalla yettiligi to'g'risida*”gi qonun loyihasini ishlab chiqish, unda tuzilmaviy a'zolarining huquqiy maqomi, vakolatlari va javobgarligi unifikatsiya qilish;

– “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonunga “*Mahallaning jamoat*

*tartibini ta'minlashdagi huquqiy vakolatlari*” nomli maxsus bob kiritish;

– profilaktika inspektorining huquqiy maqomini mustahkamlash maqsadida “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi qonunda maxsus bob ajratish;

– mahalla fuqarolar yig'ini komissiyalariga ayrim ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha chora ko'rish vakolatini berish (amalda faqat materiallarni yuborish vakolati mavjud);

– “Reintegratsiya”, “Profilaktika” va “Mahalla” elektron modullarining yagona integral raqamli platformasini yaratish;

– “mahalla yettiligi” a'zolarining daromad deklaratsiyasi majburiyati va KPI ko'rsatkichlarining ochiqqligini joriy etish.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur mavzu chuqurlashtirilgan ilmiy o'rganishni talab qiladi. Xususan, *mahallaning raqamli huquqiy tizimga integratsiyasi, mahalla qarorlari ustidan sud nazoratining o'ziga xosligi*, shuningdek, *mahalla darajasidagi korrupsiyaviy jinoyatchilikning kriminologik profili* – alohida monografik tadqiqot predmetiga aylanishi mumkin.

### Foydalanilgan manbalar

1. Amanov A.A. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari faoliyati huquqiy asoslarining rivojlanishi (1999–2016 yy.) // Yangi O'zbekiston akademik tadqiqotlari jurnali. – Toshkent, 2024. – № 1. – B. 15–28.
2. Andijonda yer uchun 60 ming dollar talab qilgan mahalla raisi va hokim yordamchisi ushlandi // Daryo.uz rasmiy nashri. – URL: <https://daryo.uz>
3. Crime Index by Country 2025 Mid-Year. – Numbeo (rasmiy veb-sayt). – URL: [https://www.numbeo.com/crime/rankings\\_by\\_country.jsp](https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp)
4. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining kodeksi (2018-y.). – Toshkent: Adolat, 2024. – 184 b.
5. Mahalla yettiligi faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanma / O'zbekiston mahallalari uyushmasi. – Toshkent, 2025. – 96 b.
6. Mustofaqlulov B.A., Ro'ziyev J.S. Profilaktika inspektorining profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish // Yangi O'zbekiston akademik tadqiqotlari jurnali. – 2025. – № 2. – B. 89–96.
7. Prezidentning Shayxontohur tumani Yangi Kamolon mahallasiga tashrifi: rasmiy ma'lumotlar. – Gazeta.uz, 11.07.2025. – URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/07/11/crime/> (murojaat sanasi: 12.05.2026).
8. «Probatsiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – 07.08.2024-y. – O'RQ-938-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
9. Saidov A.X. Yangi O'zbekiston konstitutsiyasida inson huquqlari konsepsiyasining transformatsiyasi // Yuz.uz nashri. – 2023. – 3-iyul. – URL: <https://yuz.uz/oz/news/yangi-tahrirdagi-konstitutsiya> (murojaat sanasi: 12.05.2026).
10. «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. – 14.04.1999-y., 758-I-son (yangi tahr.: 22.04.2013, O'RQ-350-son) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
11. «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. – 02.09.2019-y., O'RQ-561-son.
12. Xushboqov A.Sh. Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarini rivojlantirishda xorij tajribasi // IQRO. – 2023. – T. 2, № 2. – B. 740–750.
13. O'zbekiston Respublikasi IIV Tergov departamenti boshlig'i R.Ashropovning matbuot anjumanidagi ma'ruzasi. – 23.12.2025 // Gazeta.uz rasmiy nashri. – URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/12/24/crime-stats/> (murojaat sanasi: 12.05.2026).
14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). – Toshkent: Adolat, 2023.
15. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
16. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1-son qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahalla yettiligi» faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida»gi 292-son qarori.
19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 334-son qarori.